

## BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLARNING TARIXIY AHAMIYATI

*Ergasheva Raxima Turayevna**Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 40-maktab tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Yevropa va butun dunyo tarixi uchun o'chmas iz qoldirga X.Kolumb ekspeditsiyasi yangi davrni ochib berdi. Aynan, shu voqeadan so'ng butun dunyoda mustamlaka uchun kurashlar boshlangan.

**Kalit so'zlar:** Hindiston, Toskanelli, Ispaniya, Amerika, Magellan, hindu, qahva, paxta, kartoshka.

Buyuk geografik kashfiyotlarning tashabbuskorlari Portugaliya va Ispaniya dengiz sayyohlari bo'lishdi. Tabiiyki, buyuk geografik kashfiyotlarni dovyurak dengizchi-sayyohlarga amalga oshira olar edilar. Shunday dengiz sayyohlaridan biri admiral Xristofor Kolumb (1451-1506) edi. U o'z oldiga Hindistonga Atlantika okeani orqali boradigan yo'l ochishni maqsad qilib qo'ydi. Dengiz sayohatini amalga oshirishga birgina dovyuraklik kamlik qilardi, albatta. Buning uchun ilmfan yutuqlariga ham tayanish, ulardan amalda foydalana bilish ham zarur edi. Bu o'rinda italiyalik olim P. Toskanelli yerning dumaloqligi haqidagi ta'limotdan kelib chiqib, dunyo xaritasini yaratganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu xaritada Osiyo qifasi qirg'oqlari Atlantika okeanining g'arbiy sohillarida ekanligi belgilangan edi. Shu tufayli P. Toskanelli Yevropa qirg'oqlaridan g'arb tomonga suzib Hindistonga borish mumkin, deb ishonardi. Kishilardagi tadbirkorlik ruhi, kapital jamg'arishga intilish, insonning imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi eng dadil rejalarni ham amalga oshiradigan qilib qo'ydi. Shu tariqa Hindistonga boradigan yangi yo'l topish yevropaliklar uchun hayotiy zaruratga aylangani buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishini muqarrar qilib qo'ydi. Buyuk geografik kashfiyotlarning birinchi bosqichida bu kashfiyotlarni amalga oshirish ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra Ispaniya va Portugaliya zimmasiga to'g'ri keldi. Bir necha 10 yil davomida Pireney yarim orolidan chiqqan sayyohlar SHarq mamlakatlariga ikki tomonlama – Afrikaning janubiy chekkasidan aylanib o'tuvchi janubi-sharqiy va Janubiy Amerikaning janubiy chekkasidan aylanib o'tuvchi janubi-g'arbiy yo'lni ochdilar. G'arbiy yo'l izlab Amerika qit'asini kashf etdilar va o'zlashtira boshladilar. XVI asr o'rtalariga kelib Pireney davlatlari ochilgan erlardagi boyliklardan qoniqib, yangi erlarni izlashdan voz kehdilar. O'sha davr hujjatlariga ko'ra Osiyoga boriladigan yo'llar shu ikki davlatga Rim papasining qarori – bullasi bilan tasdiqlangan edi, CHunonchi, 1481 yilda papa Sikst VI portugallarga Boxador burnidan janubga to hindlarga qadar bo'lgan hududni “Aeterni Regis” bullasi bilan taqdim etgan. Kolumbning Hindistonga etib borganligi haqidagi xabardan keyin

portugallar Rim papasi huzurida da'vo ishini qo'zg'adilar. Natijada endi 1493 yilda papa Aleksandr VI yangi "Inter cetera" bullasini e'lon qildi. Bulladagi so'zlar geografik jihatdan mantiqsiz bo'lsada ispanlar va portugallarning kemalari suzadigan hududlar uchun demarkatsion chiziqni belgilab berdi, bu chiziq ta'xminan 38<sup>0</sup> g'arbiy uzunlikdan o'tadi. Ushbu bulladagi geografik xatoliklarni, masalan "meridiandan janubga tomon" kabi so'zlarni tuzatish asnosida ispan va portugal hukumatlari o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi va 1494 yilda Tordesil'yas shahridagi sulh bilan yakunlandi. Bu sulh natijalariga ko'ra yangi demarkatsion chiziq o'tkazilib, bu 46<sup>0</sup> 30' g'arbiy uzunlikdan o'tadi. SHunday qilib, Atlantika okeanining sharqiy qismi va Afrika qirg'oqlari, Hind okeani orqali Hindiston va Molukka orollarigacha boriladigan dengiz yo'llari Portugaliyaga, Atlantika okeanining g'arbiy qismi va Yangi dunyo qirg'oqlari orqali Tinch okeani va undan Hindixitoy yarim orollarigacha boriladigan dengiz yo'llari Ispaniyaga tegishli bo'ldi. SHu bilan Buyuk geografik kashfiyotlar davrining birinchi bosqichi tugadi. Bu davrning ikkinchi bosqichida Angliya va keyinroq Gollandiya ham Osiyoga etishga harakat qila boshladilar. Ular dengizlarda erkin suza boshlagan bo'lsalarda, Ispaniya va Portugaliya kemalari suzadigan yo'llarda suza olmasdilar, shuning uchun ham SHarqqa yangi yo'nalishlarni izlay boshladilar. Ular Osiyoga Amerika qit'asining va Evrosiyoning shimoliy qirg'oqlari orqali aylanib o'tishni mo'ljalladilar. Inglizlarning SHimoliy Amerikaga yo'lini birinchi bo'lib, 1497 yida Jon Kabot ochdi. U Nyufaundlend oroli yaqinida materik qirg'oqlarigacha etib borib janubi-g'arbg'a tomon ancha suzdi, lekin boylik topa olmay bu hududlarni egallashdan voz kechdi. XVI asrning 20-yillarida shimoliy g'arbiy yo'lni ochish uchun portugal, ispan va fransuz ekspeditsiyalari uyushtirildi. SHimoliy Amerika sharqiy qirg'oqlarining Labrador yarim orolidan Floridagacha bo'lgan qismi o'rganildi va kartaga tushirildi. 1534 – 36 yillarda fransuz Jak Kart'e Avliyo Lavrentiy daryosiga tushib Ottava daryosining yuqori oqimigacha suzib bordi, ostonalar tufayli to'xtashga majbur bo'lgan sayyoh hindulardan uyoqda katta suv havzalari borligini eshitdi. SHu tariqa Buyuk ko'llar va Kanada o'lkasi kashf etildi ("kanada" hindular tilida qishloq ma'nosini beradi). 16-asrning so'nggi choragida shimoli-g'arbiy yo'lni qidirishga Angliya harakat qila boshladi. 1576-1578 yillarda Martin Frobisher Baffin erini kashf etdi. Genri Gudzon 1607 yilda shimoliy kengliklarning 80' 23' gacha etdi, 1610 -11 yillarda Labrador yarim orolini aylanib o'tib, shu nomdagi qo'ltiqqa chiqdi va Tinch okeaniga etdim deb o'yladi. XVII asrning 10-30 yillarida Robert Baylot, Uil'yam Baffin, L'yuis Foks, Tomas Jeyms ekspeditsiyalari tomonidan Baffin dengizi qirg'oqlari, Gudzon qo'ltig'ining g'arbiy qismi, Foks havzasining janubiy qismlari o'rganildi va kartaga tushirildi. SHu bilan shimoliy yo'lni izlash bir qancha vaqt to'xtab qoldi. XVI asrning o'rtalarida Osiyoga shimoli-sharqiy yo'lni izlash

boshlanib, Robert Chenslor Rossiyaning shimoliy qirg'oqlari orqali savdo aloqalarini o'rnatdi. Stiven Barrou Vaygach oroligacha, 1594-97 yillarda golland Villem Barents uch martalik urinishda yangi yer orollarigacha etib bordi va shu bilan bu yo'lni qidirish ham to'xtadi. 1487-1488-yillari portugaliyalik Bartolomeu Diash ekspeditsiyasi Afrikaning eng janubiy nuqtasigacha yetib keladi va kuchli dovullarga duch kelib, ortga qaytishga majbur bo'ladi. Bu yerni u Dovullar o'lkasi deb ataydi. Lekin qirol buyrug'i bilan bu yerdan o'tishga umid bog'lab Yaxshi Umid burni deb nomlagan. 1497-yili portugaliyalik Vasko da Gama Yaxshi Umid burni orqali o'tib, natijada yevropaliklarda Afrikaning janubiy va sharqiy sohillari haqida aniq tasavvur paydo bo'ladi. 1502-yili Amerigo Vespuchchi Janubiy Amerikaga qilgan sayohati paytida daryolardan birining quyi qismida to'xtab o'tadi. Bu 1 yanvarga to'g'ri kelgan va daryoni «yanvar daryosi», ya'ni Rio-de-Janeyro deb nomlagan. Keyinchalik bu yerda shu nom bilan atalgan yirik shahar barpo bo'lgan. 1513-yil 25-sentabrda ispan konkistadori Vasko Nunes de Bilboa Panama bo'ynini quruqlik orqali kesib o'tib, hozirgi Tinch okeanga chiqadi va uni Janubiy okean deb nomlagan. XVII asrda Avstraliya materigi kashf etilganidan so'ng, bu yerda dastlab gollandcha nomlar paydo bo'la boshladi. Derk Xartog va Piter Nayt orollari—shu yerlarni kashf etgan golland dengizchilari nomi bilan, Luven burni va Arnemlend yarim oroli Gollandiya kemalari—«Luven» hamda «Arnem» sharafiga qo'yilgan. Avstraliyaning Janubiy qismini va eng yirik orolini kashf etgan Abel Tasman sharafiga Tasmaniya oroli deb atalgan. Mashhur dengizchi Flinders sharafiga Avstraliyadagi orol, daryo, tog' nomlari atalgan. Ingliz sayyohi Jon Eyr Avstraliya materigini g'arbdan sharqqa kesib o'tib, atroflicha o'rgangan. Uning sharafiga Maunt—Eyr tog'i, Eyr yarim oroli, Eyr-Nort ko'li, Eyr daryosi deb nomlangan. Avstraliyaning janubida - Katta Avstraliya ko'rfazi qirg'oqlari bo'ylab Nallarbor cho'li cho'zilib yotadi. Nallarbor (lotincha Nullarbor)—«daraxtsiz, o'simliksiz yer» degan ma'noni beradi, bu cho'lga J.Eyr shunday nom bergan. Avstraliya kashfiyotchilaridan biri Jeyms Kuk materikning sharqiy sohillarida to'xtab o'tgan bir joyni Botani-bey (Botanika buxtasi) deb nomlagan. Chunki u shu yerlardan yevropaliklarga umuman noma'lum bo'lgan ko'pgina o'simliklardan namuna to'plagan. Keyinchalik bu joy o'rnida Sidney shahri qad ko'targan. Eng so'nggi materik—Antarktida rus sayyohlari F.F.Bellingsgauzen va M.Lazerevlar tomonidan «Mirniy» va «Vostok» kemalarida 1820-yilda kashf etilgan. «Mirniy» va «Vostok» kemalari nomi bilan Antarktidadagi ilmiy stansiyalar atalgan. Umuman, dengiz sayyohatiga chiqilgan ayrim kemalar nomi joy nomiga o'tgan. «Arnem» kemasi haqida yuqorida aytib o'tildi. Tinch okeandagi chuqur cho'kmalardan biriga «Vityaz» kemasi nomi, Arktikani o'rgangan «Vega», «Gerkules», «Janetta», «Mod», «Foka» kemalarining nomi ham ayrim joy nomlariga o'tgan. Yapon dengizining Primore qirg'oqlarida Amerika ko'rfazi bor, bu ko'rfazni tekshirgan ruslarning «Amerika» nomli poroxodi nomiga ko'yilgan. Antarktida materigida turli sayyohlar va boshqa shaxslar

ism-familiyasiga qo'yilgan nomlar ko'p: Viktoriya Yeri, Uilks Yeri, Adeli Yeri, Elsuert Yeri, qirolicha Mod Yeri, Jekson tog'i, Uedell dengizi, Bellinsgauzen, Amundsen, Ross dengizlari, Pyotr I, Skott orollari va hokazo. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, XV-XVII asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar dunyo taraqqiyotining yangi boshqichini boshlab berdi. Yevropaliklarning olam haqidagi taasavvurlarini boyitdi. Qit'alar o'rtasida savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarning keng quloch yoyishi va jadallik bilan rivojlanishi katta ahamiyatga ega edi. Kashfiyotlar natijasida geografiya, kartografiya fanlari yangidan-yangi bilimlar bilan boyitildi. Shuningdek, mustamlakachilik siyosati yangi yerlarni egallash bilan birga undagi aholini shavqatsiz eksplutatsiya qilish va qullikning eng og'ir ko'rinishlari bilan birga olib borildi. Natijada narx-navo inqilobi vujudga keldi. Kapitalizm rivojlandi va yangi industrial sivilizatsiya shakllanishiga turtki bo'ldi.

**Adabiyotlar:**

1. Ergashev Sh. "Jahon tarixi", (Yangi davr. 1-qism. XVI-XVII asrlar) T. "O'qituvchi" nashryoti,2013.
2. Semyonov V.F. "O'rta asrlar tarixi" "O'qituvchi" nashiryoti; T.1973. 3. Geografik kashfiyotlar. "Davr" nashiryoti. T.2013.
4. Agibalova E.V., Donskoy G.M., Salimov T.O'. "Jahon tarixi" (V-XVII asrlar), T. "O'qituvchi".1995.